

UDK: 631.525.633.19

TRITIKALENING TANLAB OLINGAN NAVLARINING EKOLOGIK NAV SINIVI

I.U. Egamov

q.x.f.d.,k.i.x

Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti, laboratoriya mudiri.

B.T. Xamdamova

Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti, tayanch doktoranti.

Annotatsiya: *Introduktsion tritikale navlarining dastlabki nav sinovida tanlab olingan navlarining dastlabki rivojlanish fazalari bo'yicha fenologik kuzatuvlar olib borildi.*

Kalit so'zlar: *Tritikale, oziq-ovqat, tajriba, variant, yashil massa, vegetatsiya davri.*

Annotatsiya; *Pri pervom sortoispytanii introduktivnykh sortov tritikale fenologicheskiye nablyudeniya provodilis na nachal'nykh fazax razvitiya.*

Klyuchevye slova. *Tritikale, pitaniye, opyt, variant, zelenaya massa, period vegetatsii.*

Annotation: *During the first variety testing of introductory varieties of triticale, phenological observations were carried out at the initial stages of development.*

Keywords: *Tritikale, nutrition, experience, variant, green mass, growing season.*

Keyingi yillarda dunyoda global ob-havo va iqlimni o'zgarib borayotganligi qishloq xo'jalik ekinlaridan, jumladan boshqadi don ekinlaridan ham yuqori va sifatli hosil olishni kamayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarni hisobga olib respublikamizni tuproq va iqlim sharoitini xilma-xilligini hisobga olgan holda sug'oriladigan sharoitlariga mos boshqadi don ekinlarini serhosil, ertapishar, kasalliklariga, sho'rga, qurg'oqchilikka va issiqlikka chidamli, don sifati yuqori bo'lgan navlarni yaratish va ularni urug'chilik tizimini ilmiy asosda tashkil etishni taqozo etadi.

Bugun kunda Tritikale o'simligini yetishtiruvchi asosiy davlatlar – Germaniya, Belorussiya, Frantsiya, Rossiya, Xitoy, Vengriya, Ispaniya, Avstraliya mamlakatlari hisoblanadi.

Tritikale o'simligi avlodlararo duragay bo'lganligi uchun unning tarkibida kuzgi bug'doy va javdar o'simliklarining irsiy belgilari hamda foydali xo'jalik belgi xususiyatlarini o'zida mujassam qilgan o'simlik hisoblanadi. Tritikale bug'doyning lotincha nomining birinchi qismi (triti) va javdar o'simligi nomining ikkinchi qismi (sale) bilan (Tritisale) deb ataladi. Boshog'ining ko'rinishi, tuzilishi, donining shakli bug'doy va javdarni juda o'xshash bo'ladi. Lekin tritikale bug'doy o'simligidan quyidagi belgilari bilan farq qiladi: poyasi bug'doy o'simligidan, baland, yo'g'on, pishiq, yotib qolishga chidamli, bargi va boshog'i katta, doni ham yirik. Doni tarkibida oqsil moddasi bug'doynikiga nisbatan 1,0–1,5% va javdarga nisbatan 3,0–4,0% ko'p. Doni tarkibida 3,8% lizin va 2,0–4,0% yog' bor. Dunyo mamlakatlari agrar sohasida o'tkazilayotgan islohotlar aholini oziq-ovqat mahsulotlari,

sanoatni xom-ashyo, chorvachilikni yem-xashak bilan ta'minlashga qaratilgan. Bu borada g'allachilikni asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, tritikale - Tritikale L. ekini muhim o'rin egallaydi.

2022 yilning yanvar-fevral oylari davomida "Tritikale seleksiyasi uchun boshlang'ich manbalar yaratish introduktsion navlarini tanlash hamda urug'chiligini tashkil etish" mavzusi bo'yicha 3 yil davomida olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishining ishchi dasturi, yillik ish rejalari, shaxsiy ish rejalari, hamda ishchi dastur uchun taqriz olindi. Ilmiy tadqiqot ishi uchun Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot institutining markaziy dala tajribasi tanlab olindi.

Tritikalening seleksiyada boshlang'ich manbalar yaratish xamda introduktsion navlarini ekologik nav sinov natijalari bo'yicha mintaqa sharoitida tanlash baxolash ishlarini olib borishda tritikalening kelib chiqishi geografik uzoq bo'lgan nav va namunalarning dunyo genofondi kolleksiya ko'chatzoridan foydalanildi.

Dunyo genofondi kolleksiya ko'chatzoriga tritikalening 185 ta nav va namunalari 2021 yil 20 oktyabrda nav va namunalar birinchi yil o'rganishda ular 1m2 maydonda qaytariqsiz hamda ikkinchi yil o'rganilayotgan nav va namunalar esa 2-3m2 maydonda 3 qaytariqda joylashtirildi.

Kolleksiya ko'chatzoriga asosan Krasnodar o'lkasining P.P.Lukyanenko nomidagi «Krasnodar Milliy don markazi», Moskva viloyati Nemchinovka qishloq xo'jalik ilmiy-tadqiqot institutlari, (Rossiya), O'simliklar Genetik resurslar ilmiy-tadqiqot instituti hamda SIMMYT, ISARDA, ISRISAD halqaro ilmiy markazlaridan keltirilgan tritikalening jahon genofondi nav va namunalari tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

Tritikale nav va namunalarini geografik kelib chiqishi

№	Geografik kelib chiqishi	Mamlakatlar nomi	Namunalar, soni
1.	SHarqiy yevropa	Rossiya, Vengriya, Serbiya	88
2.	G'arbiy yevropa	Frantsiya, Italiya, Daniya	30
3.	Markaziy Osiyo	O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston	20

4.	Old Osiyo	Turkiya, Suriya	37
5.	Markaziy Amerika	Meksika	10
	Jami:	12	185

Ushbu to'plangan tritikalening dunyo va mahalliy genofondi kolleksiya nav va namunalari geografik kelib chiqishi bir-biridan uzoq bo'lgan asosan Meksika, Italiya, Daniya, Frantsiya, Serbiya, Vengriya Rossiya, Turkiya, Suriya, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston mamlakatlari seleksiyasiga mansub nav va namunlardir.

Mintaqa sharoitida ekologik nav sinovi olib borish uchun institutining Markaziy tajriba dalasiga Krsnodar seleksiyasiga mansub bo'lgan tritikalening introduktsiya qilingan

navlaridan Sergiy, PopTSAZ-44, YArillo, Romes, Sotnik, Brat, KNINEX-6, KNINEX-70, FRIZO-6, yeRIZO-49, RANV-17, POLMER-17, PASSI-8-60, HIPPO-4, SITER-77-170, Sloser-49, 578884, 578894, 100519, 100557, 100597, 114216, 117429, 118156, 118198, 118759, 118947 navlari ertapisharligi va xosildorligi yukoriligi aniklandi tanlab olindi va ekildi. Ekologik nav sinovida tritikale navlarining mintaqa sharoitida o'sish rivojlanish fazalari xamda mintaqa sharoitida tabiatning noqulay iqlim sharoitlariga bardoshligi baxolanadi. 2023 yilning 15 nayabr kuni navlari ekildi. ekologik nav sinovida tritikale navlarining mintaqa sharoitida o'sish rivojlanish fazalari xamda mintaqa sharoitida tabiatning noqulay iqlim sharoitlariga bardoshligi baxolanadi.

Ekologik nav sinov ko'chatzori paykalchalar hisob maydoni 100 m² da bitta yarusda ekish me'yorilari gektariga 4,0 mln dona unuvchan urug' hisobida, ekish chuqurligi 4-5 sm qilib belgilanib, SN-16 rusumli seleksion seyalkalarda kuni ekildi.

Dalla tajribalarini ekib joylashtirishdan oldin Fosforli mineral o'g'iti (sof xolda 90 kg) va kaliyli mineral o'g'iti (sof xolda 60 kg) o'g'itlarning 100% me'yor shudgor ostiga ekishdan oldin yillik me'yor berildi.

Dunyo genofondi kolleksiya ko'chatzoriga ekilgan nav va namunalarni o'sish va rivojlanish fazalari o'rganilganda namunalarni unib chiqish davri 8-12 kunda to'liq unib chiqanligi kuzatildi.

Tajribadagi kuzatuv natijalariga ko'ra Tritikaleni tanlab olingan navlarida unib chiqish YARILLO 18- nayabr sanasiga, POP-SAZ – 44 navi 19- nayabr sanasiga, SOTNIK navi 19 nayabr sanasida kuzatildi. Tuplash davri Sergey va 114-216 nav va liniyasi 10-mart kuniga eng erta boshlanganligi kuzatildi. Tuplash fazasiga Polmer -17 va 100-597 nav va liniyasi kech o'tkanligi kuzatildi. Naychalash fazasiga POMES va FRIZO-6 nav va liniyasi 18-19 aprel kuniga boshqa navlarga nisbatan ertaroq o'tkanligi kuzatildi. BRAT va HIPPO-4 navlari 29- aprel sanasiga naychalash fazasiga kechroq kirganligi kuzatildi. POLMER, RANV va 118-198 nav va liniyasi 03-05 may sanasiga . boshqoqlash fazasiga ertaroq kirganligi kuzatildi. KNINEX -70 21- may sanasiga, 118-156 liniyasi 18- may sanasiga boshqoqlash fazasiga kechroq kirganligi kuzatildi. POP-SAZ -44 21- may sanasiga, SERGEY 11- May sanasiga, POMES 9- may sanasiga, FRIZO -6 navi 9- may sanasiga, RANV-17 navi 7- may sanasiga, POLMER-17 8- may sanasiga, SITER-77-100 navi 7 – may sanasiga, 114-216 8- may sanasida gullash fazasiga o'tkanligi kuzatildi. KNINEX-70 21- may sanasiga, 114-216 liniyasi 28- May sanasiga , Brat navi 21- may sanasiga, gullash fazasiga boshqa navlarga nisbatan kechroq kirganligi kuzatildi.

2-jadval
Tritikalening tanlab olingan navlarini o'sib rivojlanish fazalarining
davomiyligi bo'yicha fenologik
kuzatuv natijalari. (2021-2022 y)

№	Navlar	Ekligan muddat	Umib chiqish	Tuplash	Naychalash	Boshloqlash	Gullash davri
1	2	3	4	5	6	7	8
1.	Sergey	15.11.2 2	21.11.2 2	10.03.2 3	21.04.2 3	06.05.2 3	11.05.2 3
2.	PoP-saz-44	15.11.2 2	19.11.2 2	12.03.2 3	22.04.2 3	15.05.2 3	21.05.2 3
3.	Yarillo	15.11.2 2	18.11.2 2	12.03.2 3	20.04.2 3	05.05.2 3	12.05.2 3
4.	Romes	15.11.2 2	20.11.2 2	12.03.2 3	19.04.2 3	03.05.2 3	09.05.2 3
5.	Sotnik	15.11.2 2	19.11.2 2	11.03.2 3	23.04.2 3	12.05.2 3	17.05.2 3
6.	Brat	15.11.2 2	21.11.2 2	13.03.2 3	29.04.2 3	16.05.2 3	21.05.2 3
7.	KNINEX-6	15.11.2 2	22.11.2 2	14.03.2 3	22.04.2 3	04.05.2 3	11.05.2 3
8.	KNINEX-70	15.11.2 2	21.11.2 2	14.03.2 3	27.04.2 3	17.05.2 3	21.05.2 3
9.	FRIZO-6	15.11.2 2	20.11.2 2	13.03.2 3	18.04.2 3	04.05.2 3	09.05.2 3
10.	ERIZO-49	15.11.2 2	22.11.2 2	12.03.2 3	20.04.2 3	06.05.2 3	11.05.2 3
11.	RANV-17	15.11.2 2	22.11.2 2	14.03.2 3	25.04.2 3	02.05.2 3	07.05.2 3
12.	POLMER-17	15.11.2 2	23.11.2 3	15.03.2 3	24.04.2 3	03.05.2 3	08.05.2 3
13.	PASSI-8-60	15.11.2 2	20.11.2 3	13.03.2 3	26.04.2 3	05.05.2 3	10.05.2 3
14.	HIPPO-4	15.11.2 2	22.11.2 3	13.03.2 3	28.04.2 3	06.05.2 3	11.05.2 3
15.	SITER-77-170	15.11.2 2	21.11.2 3	14.03.2 3	26.04.2 3	04.05.2 3	09.05.2 3
16.	Sloser-49	15.11.2 2	20.11.2 3	12.03.2 3	29.04.2 3	07.05.2 3	11.05.2 3
17.	578884	15.11.2 2	23.11.2 3	13.03.2 3	27.04.2 3	08.05.2 3	13.05.2 3

			3	3			
18	578894	15.11.2 2	22.11.2 3	12.03.2 3	25.04.2 3	15.05.2 3	20.05.2 3
19	100-519	15.11.2 2	21.11.2 3	14.03.2 3	28.04.2 3	18.05.2 3	23.05.2 3
20	100-557	15.11.2 2	23.11.2 3	14.03.2 3	22.04.2 3	08.05.2 3	13.05.2 3
21	100-597	15.11.2 2	21.11.2 3	15.03.2 3	28.04.2 3	16.05.2 3	21.05.2 3
22	114-216	15.11.2 2	21.11.2 3	10.03.2 3	20.04.2 3	26.04.2 3	08.05.2 3
23	117-429	15.11.2 2	22.11.1 3	12.03.2 3	26.04.2 3	03.05.2 3	17.05.2 3
24	118-156	15.11.2 2	23.11.2 3	12.03.2 3	21.04.2 3	18.05.2 3	28.05.2 3
25	118-198	15.11.2 2	22.11.2 3	11.03.2 3	22.04.2 3	02.05.2 3	15.05.2 3
26	118-759	15.11.2 2	23.11.2 3	13.03.2 3	24.04.2 3	15.05.2 3	24.05.2 3
27	118-947	15.11.2 2	22.11.2 3	12.03.2 3	22.04.2 3	03.05.2 3	18.05.2 3

Sut pishish. Fenalogik kuzatuvga ko'ra POMES 14- may sanasiga, FRIZO-6 14- may sanasiga, RANV-17 12- may kunida sut pishish fazasiga boshqa navlarga nisbatan ertaroq o'tkanligi aniqlandi.

Mum pishish. O'simlik mum pishish davriga SOTNIK 28 may sanasiga YARILLO 29 may sanasiga, KHINEX-6 navi 29-may sanasiga, POP-SAZ-44 navi 10 iyun sanasiga, SOTNIK navi 3-iyun samasiga BRAT navi 10 may, 117-429 liniyasi 5- iyun kuniga, 100-557 liniyasi 02 iyun kunida mum pishish fazasiga o'tkanligi aniqlandi.

To'la pishish. O'simlik to'la pishish davriga POMES 8-iyun kuniga, KNINEX- 6 8- iyun kuniga, FRIZO 6 navi 7- iyun kuniga RANV 6-iyun kuniga POLMER 8-iyun, PASSI 10- iyun kuniga, SITER -77-100 navi 7-iyun kunida mum pishish fazasiga o'tkanligi aniqlandi.

Xulosa

Tajribada introduksion tritikale navlari vegetatsiya davriga ko'ra: 205 kundan 225 kun orasida pishib yetilgani aniqlandi. Unib chiqish YARILLO, POP-SAZ -44, SOTNIK. Navlarida kuzatildi. Tuplash fazasi SERGEY,114-216 nav va liniyasida ertaroq o'tkanligi kuzatildi. Naychalash fazasi boshqa navlarga nisbatan ROMES , FRIZO-6 navlari ertaroq kirganligi aniqlandi. Boshqolash fazasi POLMER ,RANV va 118-198 linyada navlarida ertaroq boshlanganligi kuzatildi Gullash fazasi KINENEX -70 SITER -77-100 144-218 nav va linyalarida erta boshlanganligi aniqlandi. . pishish davriga POMES 8-iyun kuniga, KNINEX- 6 8- iyun kuniga, FRIZO - 6, RANV, POLMER, PASSI, SITER -77-100 navi kunida mum pishish fazasiga o'tkanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. P.O.Oripov N.X.Xalilov "O'simlikshunoslik" Samarqand-2005
2. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali "Tritikale" 2018.
3. X. Ataboyeva O. Qodirxo'jaev "O'simlikshunoslik" Toshkent- 2006 yil 94 bet.
4. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta (s osnovami statisticheskoy obrabotki rezultatov issledovaniy). — Izd. 5-e, dop. i pererab. M.: Agro-promizdat, 1985.-351 s.
5. Abdukarimov. D. T. Donli ekinlar selektsiyasi va urug'chiligi. Toshent-2010 y. 9-84 bet.

INTERNET SAYTI:

1. <https://agro.uz>
2. <https://foodandhealth.ru/krupy/tritikale/>